

**MAVZU: AYOLLARGA QARSHI JINOYATLARNI KAMAYTIRISH VA  
AYOLLARNI JINOYATCHILIKKA YO'L QO'YMASLIKKA UNDASHDA  
HUQUQIY MEHANIZMLARNING RO'LI.**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kunduzgi ta'lif  
3-o'quv kursi 315-guruh kursanti  
Yo'ldosheva Barchinoy Otabek qizi*

**Annotatsiya:** Ayollar jinoyatchiliginini oldini olish masalasi har bir davlat uchun dolzarb va muhim muammo hisoblanadi. O'zbekiston timsolida bu masalani hal qilish uchun kompleks yondashuv va turli ijtimoiy, huquqiy, madaniy va iqtisodiy omillarni hisobga olish kerak. O'zbekistonda ayollar jinoyatchiligi va unga oid masalalarni oldini olish uchun bir nechta yondashuvlar mavjud bo'lib, bu boradagi ishlar ko'plab ijtimoiy va huquqiy choralarga asoslanadi.

**Abstract:** Prevention of women's crime is an urgent and important problem for every country. In the case of Uzbekistan, it is necessary to take a comprehensive approach and take into account various social, legal, cultural and economic factors. There are several approaches to preventing women's crime and related issues in Uzbekistan, and efforts are based on a number of social and legal measures.

**Kalit so'zlar:** Ayol, ayollar jinoyatchiligi, ayollarni himoya qilish, zo'ravonlikka qarshi kurash, gender tengligi, ayollarni ijtimoiy qo'llab quvvatlash, ayollarni reabilitatsiya qilish.

Jinoyatchilik har bir jamiyatda mavjud bo'lsa-da, uning muayyan guruqlar, xususan ayollar orasida tarqalishi jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy holatiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Ayollar jinoyatchiligi — bu faqat jinoyat sodir etish holati bo'lib qolmay, balki muayyan ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy omillar bilan bog'liq bo'lib, jamiyatning umumiy rivojlanishiga, odamlarning hayot sifati va xavfsizligiga bevosita ta'sir etadi. O'zbekistonda ayollar jinoyatchiliginini oldini olish jamiyatning yuksak mas'uliyati sifatida ko'riliishi zarur.

**Ayol** (arabcha: oila; xotin) — balog'atga yetgan xotin-qiz jinsidagi inson, odam bolasini dunyoga keltiruvchi ikki jinsdan biri (umuman erkakqa qarama-qarshi jinsdagi shaxs, xotin[1]).

**Ayollar jinoyatchiligi** - bu jinoyatning bir qismi bo'lib, u bir qancha sifat va miqdoriy xususiyatlar, jinoyatchilik omillarini belgilovchi bir qancha shaxsiyat xususiyatlarining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Shunga ko'ra, ayollar jinoyatchiligining oldini olish ham o'ziga xos xususiyatga ega. Jinoyat sodir etgan shaxslarning umumiy sonidagi ayollar ulushi kam, taxminan 15%. Shu bilan birga, ayollar jinoyati tarkibi erkak jinoyatchiligidan, asosan, kasbiy faoliyat bilan bog'liq

bo‘lgan yollanma jinoyatlarning ko‘payishi bilan farq qiladi: o‘zlashtirish yoki o‘zlashtirish yo‘li bilan o‘g‘irlilik, firibgarlik va mulkka qarshi boshqa jinoyatlar. So‘nggi yillarda bu iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlarning ko‘payishi, shuningdek, jinoyatchi ayollarning kasbiy faoliyati bilan bog‘liq: noqonuniy bank faoliyati, noqonuniy ravishda kredit olgan tashkilot bilan soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash, noqonuniy biznes. Shu bilan birga, ayollar jinoyati tarkibida bu toifadagi jinoyatlar erkaklar jinoyati tarkibidagi tegishli jinoyatlar nisbati bilan solishtirganda ancha yuqori. Ayollarning ushbu jinoyatlarni sodir etishda yuqori jinoyat faolligi, ko‘pincha bu jinoyat harakatlari iqtisodiyotning feminizatsiyalangan sohalarida sodir bo‘lishi bilan izohlanadi, masalan, savdo, bank, maishiy xizmatlar va pul munosabatlari. Ko‘pgina hollarda ayol jinoyatchiliga uni o‘rab turgan muhiti ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, doimiy ish joyining yo‘qligi, oylik maoshining pastligi, turli madaniy hordiq chiqarishga moddiy ahvoli yo‘l qo‘ymasligi, doimiy yetishmovchilik ayollarni jinoyat sari yetaklovchi omillar hisoblanadi. Eng asosiy sabablar jumlasiga esa mutasssil ruhiy zarbalar, alkogol mahsulotlarini iste’mol qilish va shaxsiy adovat kabilar kiradi. Ayollar jinoyatchilagini shaxsini o‘rganishda olimlar tomonidan ikki xil nazariyalar ilgari suriladi: A.Kettlening fikriga ko‘ra, ayollarning jinoyat olamiga kirishga ular yashagan ijtimoiy muhit, turmush tarzi, tanlagan kasbi, yoshi, ma’lumoti va boshqa umumiyl holatlar sabab bo‘ladi. Uni o‘rab turgan tashqi muhit esa jinoyat sodir etishga faqatgina turtki vazifasini o‘taydi deya ta’kidlaydi olim. Ch.Lombrozo esa ayollar jinoyatchiligining jadalligi erkaklarnikiga nisbatan past ekanini ayol organizmining o‘ziga xosligi, ayol tabiatini va uning ma’lum darajada “biologik norasoligi” bilan izohlaydi. Ushbu olimning mashhur g‘oyalaridan yana biri ayollarning tajovuzkorligiga hayz ko‘rish sikllarining katta ta’sir ko‘rsatishi haqidagi qarashidir. O‘zining “Jinoyatchi va fohisha ayol” asarida jinoyatchi ayollarning axloqiy va ruhiy xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni quyidagi turkumlarga bo‘lib chiqadi: tug‘ma jinoyatchi ayollar; tasodifiy jinoyatchi ayollar; jinoyat sodir etishdan ehtiroslanuvchi ayollar; o‘z joniga qasd qiluvchi ayollar.

Rossiyalik olim P.N. Tarnovskaya Ch. Lombrozoning g‘oyalarini davom ettirib, jinoyatchi ayol shaxsini turlarga ajratishga harakat qiladi. U ilmiy izlanishlari davomida 160 nafar qotillik jinoyatini sodir etgan ayolning shaxsi va xulq-atvorini chuqur tahlil qilgan holda, ularni ikkita katta guruhgaga ajratadi:

- 1) “kuchli ehtiros ta’siri ostida jinoyat sodir etgan qotillar”;
- 2) “tushkunlikka tushgan, idrok etishi sust qotillar”.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan farqli ravishda Q.R. Abdurasulova ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning o‘ziga xos xususiyatlari sifatida ular jinoyatni asosan yolg‘iz o‘zları sodir etishi, guruh tarkibida ko‘pincha o‘g‘rilik, kasb bilan bog‘liq jinoyatlarni, talonchilik va bosqinchilik jinoyatlarida asosan yordamchi sifatida ishtirok etishini ta’kidlagan.

**Ayollarni himoya qilish** – Ayollarni turli jinoyatlardan, xususan, zo‘ravonlik va diskriminatsiyadan himoya qilish.

O‘zbekistonda ayollarni jinoyatchilikdan himoya qilish uchun huquqiy tizimda bir qancha muhim o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bular:

- Ayollarni zo‘ravonlikdan, jismoniy va psixologik bosimdan himoya qilishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar;
- Ularning huquqlarini himoya qilish uchun psixologik va yuridik maslahatlar;
- Ayollarni jinoyatchilikdan saqlash va ularni himoya qilish bo‘yicha maxsus qonunlar va tartiblarni ishlab chiqish.

Shuningdek, politsiya va huquq-tartibot organlarida ayollar uchun maxsus bo‘limlar tashkil etilishi, ularning qonun oldida teng huquqliligin ta’minlashga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda.

**Zo‘ravonlikka qarshi kurash** – Ayollarga nisbatan jismoniy va psixologik zo‘ravonlikning oldini olish, shu jumladan, uy ichidagi zo‘ravonlik.

Mamlakatimizda huquqbazarliklar profilaktikasi bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar, xususan, aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, bu borada davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligini takomillashtirish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2017– 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha "Harakatlar strategiyasida" notinch oilalar farzandlari, uyushmagan yoshlar, ish bilan band bo‘lmagan, "ommaviy madaniyat“ ta’siriga tushib qolgan yigit-qizlarning xatti-harakatlarini nazoratga olishda ularning ota-onalari mas’uliyatini oshirish, kashandalik, alkogolli ichimliklar iste’mol qilish va boshqa illatlar profilaktikasi“ kabi dolzarb vazifalar nazarda tutilgan. Bu esa, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga ilg‘or ish usullarini joriy etish, huquqbazarliklarni barvaqt aniqlash bo‘yicha fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorlik tashkil etishni taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning: "Oilalarda nosog‘lom munosabatlar, qaynona-kelin, er-xotin o‘rtasidagi janjallar, xotin-qizlarimiz orasida o‘z joniga qasd qilish holatlari borligi shaxsan meni qattiq iztirobga solmoqda“ degan fikrlari mavzuning qanchalik dolzarb ekanligini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Ichki ishlar organlari xodimlari tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilishda birinchi bo‘g‘inlardan biri bo‘lib, xodimlarning malakasi va zo‘ravonlik sodir etilgan hollarda amalga oshirilgan dastlabki harakatlari katta ahamiyatga egadir. Zo‘ravonlikdan jabrlangan ayolning profilaktika inspektori davlat himoyasini ta’minlay berishiga bo‘lgan ishonchiga kelgusi harakatlari bog‘liq.

Zo‘ravonlikdan erkaklar ham jabrlanishi mumkin, lekin xotin-qizlarning zo‘ravonlikdan jabrlanish ehtimoli yuqoriligi, zo‘ravonlik turlari, og‘irlik darajasi va kelib chiqadigan oqibatlar keskin farqlanishini inobatga olgan holda, so‘nggi islohotlar

aynan ularni himoya qilishga qaratilgan. Bugungi kunda xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilish borasida jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikka doir murosasizlik muhitini yaratish uchun chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatimizda xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilishga oid bir qator xalqaro hujjatlar ratifikasiya qilindi. Inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarda shaxsni zo'ravonliklardan, shu jumladan oilada sodir etiladigan jinoiy zo'ravonliklardan himoya qilish mexanizmi mustahkamlab qo'yilgan. Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasi, fuqarolik va siyosiy huquqlar bo'yicha xalqaro kelishuv hamda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha xalqaro kelishuv oilani jamiyat asosidagi guruh deb tan oladi hamda shaxsni oiladagi zo'ravonliklardan himoya qiladi.

Milliy qonunchiligidan ham inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, uning hayoti, sog'lig'i, qadr-qimmati va boshqa qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari ustuvorlik kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" Qonuning maqsadi xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

**Gender tengligi** – Ayollar va erkaklar o'rtasida teng huquqlar va imkoniyatlarni ta'minlash, ayollarga nisbatan jamiyatdagi salbiy stereotiplarni yo'qotish.

Erkaklar va ayollar o'rtasida teng huquq va teng imkoniyatlarni ta'minlash masalalari quyidagi asosiy xalqaro hujjatlarda o'z aksini topgan, bular: Xotin-qizlar ahvoli bo'yicha Pekin konferentsiyasi (1995) va Inson manzilgohlari bo'yicha Istanbul konferensiyasi (1996), Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi, «Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning barcha shakllariga barham berish to'g'risida» Konvensiya.

BMTga a'zo-davlatlar uchun ayollar va erkaklar tengligini ta'minlashga doir milliy majburiyatlarni to'liq bajarish "Ming yillik rivojlanish maqsadlariga erishish" va BMT tamoyillarini qo'llab-quvvatlashga munosib hissa qo'shish demakdir.

Ayollar va erkaklar huquqlari tengligi mamlakatimizning Asosiy qonuniy O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan, unda qayd etilganidek, «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar». Jamiyatda ayollar va erkaklar tengligi tamoyilini ilgari surish demokratik boshqaruvning asosiy va ajralmas qismi ekanligini anglab yetish kuchaymoqda. Dunyoda yuz berayotgan jarayonlar iqtisodiy rivojlanish siyosati gender jihatdan neytral bo'lishi mumkin emasligini tasdiqlamoqda, gender tengligi va iqtisodiy samaradorlik o'rtasida bevosita aloqa mavjud. Jinslar ehtiyojlari va manfaatlarini hisobga olish, ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar yaratish ayollar va erkaklar ahvolini yaxshilashga, oilani mustahkamlashga, bolalarning jismonan va ma'nан kamol topishiga ko'maklashadi va oxir-oqibat millatning iqtisodiy taraqqiyot sari salohiyati va imkoniyatlarini kuchaytiradi. O'z navbatida, iqtisodiy

rivojlanish ham uzoq muddatli istiqbolda gender tengligi darajasini oshirishga keng imkoniyatlar yaratadi.

**Ayollarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash** – Ayollarni har tomonlama ijtimoiy himoya qilish, psixologik yordam ko'rsatish, iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash.

Ayollarni jinoyatga yo'naltiruvchi omillardan biri, albatta, iqtisodiy qashshoqlik va ijtimoiy beqarorlikdir. O'zbekiston hukumati ayollar uchun ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarni yaxshilashga qaratilgan ko'plab dasturlarni amalga oshirmoqda. Bunga:

### 1. Ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlar yaratish

- Ayollarni ish bilan ta'minlash va ularning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash;
- Ayollarni oliv ta'lim olishlari uchun sharoit yaratish;
- Sog'liqni saqlash va psixologik yordam ko'rsatish sohalarida yordam tizimini yaxshilash;
- Ayollarning huquqlarini himoya qilish va ularning xavfsizligini ta'minlash borasida yangi chora-tadbirlar joriy etilishi kiradi.

Ijtimoiy himoya tizimlari orqali ayollarga yordam berish, ularni jinoyatga yo'naltiruvchi muammolardan himoya qilishga xizmat qiladi.

Ayollar jinoyatchiligining oldini olishda madaniy va ta'lim sohalarining o'rni juda katta. Ta'lim orqali, ayniqsa, yosh avlodni jinoyatchilikka qarshi tarbiyalash,adolat, inson huquqlari va tenglikni o'rgatish mumkin. Bu, o'z navbatida, jamiyatda ayollarni himoya qilishni kengaytiradi va ularga nisbatan turli xil stereotiplarning oldini oladi.

- Ayollarni erkin va huquqiy jihatdan imkoniyatlar bilan ta'minlash;
- Ularning jamiyatda o'z o'rnni mustahkamlash;
- Jinoyat va zo'ravonlikka qarshi kurashishda ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish mumkin.

### 3.Psixologik va sotsial yordam tizimlari

Ayollar jinoyatchiligi ko'pincha psixologik va sotsial omillar bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, oila ichidagi zo'ravonlik yoki iqtisodiy qiyinchiliklar ayollarda stress va psixologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin, bu esa jinoyatchilikka olib keladi. Shu bois, O'zbekistonda ayollarga psixologik yordam ko'rsatish, stressni kamaytirish, oila va jamiyatdagi munosabatlarni yaxshilash bo'yicha dasturlarni ishlab chiqish zarur.

**Ayollarni reabilitatsiya qilish** – Ayollarni jinoyatga qaratilgan ijtimoiy xizmatlar orqali qayta ijtimoiylashtirish.

2021-yilning 20-mayida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o'z joniga qasd qilishning oldini olish respublika markazi tugatiladi. Mazkur markaz negizida Mahalla

va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzurida Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi va uning hududiy bo'limlari tashkil etiladi. Mavjud 197 ta Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o'z joniga qasd qilishning oldini olish markazlarini optimallashtirish hisobiga 29 ta Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish bo'yicha respublika, hududiy va tumanlararo namunali markazlar tashkil etiladi. Hujjatda belgilanishicha:

- markazlar o'z faoliyatini anonimlik, axborotning maxfiyligi, kasbiy mahorat va xavfsizlik tamoyillari asosida amalga oshiradi;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari o'z faoliyatini markazlar bilan ularning faoliyatiga aralashmagan holda yaqin hamkorlikda olib boradi;
- markazlar o'z faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida qonunchilik hujjatlariga muvofiq volontyorlarni (ko'ngillilarni) jalb etishi mumkin.

Quyidagilar markazlarning asosiy vazifalari etib belgilandi:

- tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan, o'z joniga suiqasd qilgan yoki o'z joniga qasd qilishga moyilligi bo'lgan xotin-qizlarga anonim tarzda shoshilinch tibbiy, psixologik, ijtimoiy, pedagogik, huquqiy va boshqa yordam ko'rsatish;
- og'ir ijtimoiy ahvolda qolgan, shu jumladan, oilaviy muammolar va turmushida zo'rlik ishlatilishiga duch kelgan xotin-qizlar huquqlarining kafolatlarini ta'minlashga ko'maklashish;
- davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari xotin-qizlarning o'z joniga qasd va suiqasd qilish holatlarini o'rganish, bunday holatlarning oldini olish, shuningdek, o'z joniga suiqasd qilgan xotin-qizlarni normal hayotga qaytarish bo'yicha faoliyatiga yaqindan ko'maklashish;
- «Ayollar daftari»ga kiritilgan psixologik va huquqiy maslahatga muhtoj xotin-qizlarni (tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan, ijtimoiy muammolari mavjud xotin-qizlar) har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularni «Ayollar daftari»dan chiqarish choralarini ko'rish;
- nizoli vaziyatlarni, oilaviy-maishiy zo'rlik ishlatishni va o'z joniga qasd qilishga moyil xulq-atvorni, ularning kelib chiqishiga olib keladigan sabablar va shart-sharoitlarni tahlil qilish, umumlashtirish va ularga barham berish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;
- tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan yoki o'z joniga suiqasd qilgan yoki qasd qilishga moyil bo'lgan xotin-qizlar bilan profilaktik tadbirlarni o'tkazish;
- og'ir ijtimoiy ahvolda qolgan, shu jumladan, oilaviy muammolar va turmushida zo'rlik ishlatilishiga duch kelgan xotin-qizlarni kasb-hunarga yo'naltirishga ko'maklashish;
- dolzarb ijtimoiy muammolarni aniqlash maqsadida jamoatchilik fikrini o'rganish

va ijtimoiy tadqiqotlarni tashkil etish;

- zo‘ravonlikning oldini olish, xotin-qizlarning huquqlari kafolatlarini ta'minlash, ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish, ushbu maqsadlarda ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlaridan keng foydalanish.

Markazlarga quyidagilar joylashtiriladi:

1. zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlari;
2. o‘z joniga suiqasd qilgan yoki o‘z joniga qasd qilishga moyilligi bo‘lgan xotin-qizlar.

Shunday qilib, ayollarni jinoyatchilikka yo'l qo'ymaslik uchun jamiyatning barcha qatlamlari birgalikda faoliyat yuritishi kerak. Jamiyatning eng muhim qadriyatlari — tenglik,adolat va hurmatni ilgari surish orqali, har bir ayolning o‘z huquqlarini to‘liq amalga oshirishiga erishish mumkin. Bu nafaqat ayollarning, balki butun jamiyatning farovonligini ta'minlashga olib keladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Karaketov Y.M.,Usmonaliyev M. Jinoyatchilikka qarshi kurashning kriminologik choralari.-T.:O‘zbekiston,1995.-228b
3. Abdullayev Y. Sravnetelniy analiz effektivnosti regionalnoy ekonomiki.-T.:Mehnat,1987.-245s
4. Ayollar jinoyatchiligining sabab va sharoitlari hamda profilaktikasi.O‘quv qo’llanma.Q.Abdurasulova, D.M.Mirazov, J.S.Muhtorov va boshqalar-T.:O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,2016.
5. Atajanov, O'. (2024). Shahar hududida jamoat xavfsizligini taminlash bo'yicha profilaktika inspektori faoliyatini huquqiy tartibga solishning bugungi holati va o'ziga xos xususiyatlari. Актуальные вопросы обеспечения прав женщин и предотвращения насилия в семье в Узбекистане, 1(1), 24-30.
6. Mayor, Atajanov O'tkir Mamatsalayevich."ICHKI ISHLAR ORGANLARI PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING MAHALLA FUQAROLAR YIG'INLARIDAGI HISOBOT BERISH FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI TAHLILI". Journal of new century innovations 11.6 (2022): 117-121.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-561-son qonuni// URL:<https://lex.uz>.
8. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-562-son qonuni// URL:<https://lex.uz>.
9. S.Kalanova. Ayollar va bolalar ijtimoiy himoyasi-T.:2017
10. Gender.stat.uz <https://gender.stat.uz/uz/o-gendernoi-statistike-uz>.